

O'QUV LUG'ATLARINING SHAKILLANISHINI BUGUNGI YUTUQLARI

Nigora Suvonova Ro'ziqulovna

Sho'rchi tumani 35 – umumta'lim maktabi ingliz tili o'qituvchisi

O'zbekiston, Sho'rchi

Annotatsiya

«O'quv lug'atchiligi» tarmog'i jahonning ilg'or davlatlarida o'rta asrlardayoq paydo bo'lib, turli yoshdagi ta'lim oluvchilarga mo'ljallangan sanoqsiz lug'atlar yaratilganligiga qaramay, O'zbekistonda bu masala hozirga qadar tilshunoslikda ham, ta'limda ham kun tartibiga qo'yilmagan. Globallashuv davrida yosh avlodni ma'naviy barkamol, umummilliy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalash talabi o'quv lug'atlarga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Yalpi axborotlashuv, texnika asrida bolalarni kitobga jalb qilish oson kechmaydi. O'quvchi kerakli ma'lumotni tez va qulay topish yo'llarini izlaydi, o'quv lug'atlari uning yoshi, qiziqishlari, dunyoqarashiga mos tuzilib, e'tiborini torta oladi. Maqolaning mavzusining o'quv lug'atlari tuzishning leksikografik tamoyillariga bag'ishlanganligi uning dolzarbligini belgilaydi.

Kalit so'zlar: lug'atshunoslik, leksikografiya, tilshunoslig, filologiya, adabiy til, fikr, maktab, so'z.

Annotation

Despite the fact that the network of "educational dictionaries" arose back in the Middle Ages in the advanced countries of the world and created countless dictionaries for students of the era, in Uzbekistan this issue is still in linguistic knowledge, it is not on the agenda in any case. In an age of widespread education of the younger generation in a spiritually mature, sustainable interest in needs, the need for textbooks is increasing.

In the age of universal information and technology, it is not easy to captivate children with books. The student is looking for quick and easy ways to find the information they need, and dictionaries can be adapted to their age, interests and worldview.

The correspondence of the article to the lexicographic principles of compiling dictionaries determines its relevance.

Key words: lexicography, linguistics, philology, literary language, thought, school, word.

Kirish(Introduction)

Insoniyat ming yillik tarixi davomida so'z deya nomlangan ne'matdan bahramand bo'lgandan buyon so'z yig'ish, ularning ma'nosini izohlash, ma'lum bir tartibda kitob qilish – lug'at tuzish

<https://conferencea.org>

ishlari bilan shugʻullanib kelmoqda. Zeroki milliy lugʻatchiligimizning asoschisi, ilk va oʻz davrida betakror turkiy lugʻat namunasini yaratgan tilshunos olim Mahmud Koshgʻariy asarida shunday deb yozadi: “Men turklar, turkmanlar, oʻgʻuzlar, chigillar, yagʻmolar, qirgʻizlarning qishloq va shaharlarini koʻp yillar kezib chiqdim, lugʻatlarini toʻpladim, turli xil soʻz xususiyatlarini oʻrganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim”[2].

Lugʻat arabcha soʻz boʻlib, 1) til, ovoz; 2) soʻz, ifoda; 3) soʻz varianti maʼnolarini ifodalaydi. Jumladan, lugʻat soʻzi arabchada al-lugʻatil arabiyya – arab tili maʼnosida ishlatiladi. Biroq arabchaga lugʻat atama sifatida qomus (ar. 1) okean 2) lugʻat, leksikon), arabcha-oʻzbekcha lugʻat birikmasi esa qomusi arabiy-uzbakiy tarzida oʻgiriladi. SHu oʻrinda arabchada lugʻat soʻziga maʼnodosh sifatida lison soʻzini ham eslab oʻtish joiz. Bizga tanish Lison ut-tayr birikmasi qush tili (qush nutqi), aniqrogʻi, lison – til, nutq maʼnosini ifodalaydi. SHuningdek, arab adabiy tili birikmasi al-lisanul arabiyul fasih tarzida oʻgiriladi. Misollar asosida xulosa chiqarilsa, arab tilida har ikkala soʻzning oʻxshashligi nutq, til maʼnolarini ifodalashida maʼlum boʻladi, farqli tomoni esa nutq aʼzosi maʼnosini faqat lison soʻzi ifodalaydi[1].

Manbalarda lugʻatlarning ilk marotaba qanday paydo boʻlganligi haqidagi turli xil qiziqarli tarixiy hikoyalar keltirilar ekan, qadimgi grek va rimliklar matnlarda oʻzlari tushunishmagan soʻz va birikmalarning maʼnolarini izohlashga urinishgan. Lekin tildagi jamiki soʻzlarni bir joyga toʻplash mumkinligi, lugʻat tuzish ishlari ularning xayoliga kelmagan edi[16].

Evropada esa faqat XVII asrning yarimiga kelib lugʻatlarga munosabat oʻzgardi. Oʻsha davrda birinchi Fanlar Akademiyasi, Bilimlar Akademiyasi tuzila boshlagan edi. Ana shu davrda Yevropaliklar uchun ilmni qaysi tilda yaratish va qanday usulda yozish muammosi paydo boʻldi. Masala oydinlashib borar ekan, lotin tilining universal til sifatidagi mavqei mustahkam boʻlib turgan bir paytda ham ilmni qanday qilib boʻlmasin ona tilida bir joyga yigʻish lozimligi koʻpchilikni qiziqtirib qoʻydi[3].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Oʻquv lugʻati tarixini oʻrganish harakatlari Yevropa tilshunosligida ham, rus tilshunosligida ham umumiy lugʻatchilik masalalarini oʻrganishdan ikki-uch asr keyin boshlangan. Oʻquv lugʻatlarini ilmiy asosda oʻrganish XVII asrda birinchi ingliz leksikografi S.Jonson, XIX asr boshlarida fransuz tilshunoslari J.Dyubua, K.Dyubua, G.Matore, K.Bak, ispan tilshunosligida Y.Malkil ishlaridan boshlanadi. Keyinchalik rus tilshunosligida leksikografiyaning bu tarmogʻini takomillashtirish davlat ahamiyatidagi masala sifatida kun tartibiga qoʻyiladi. Ana shu xatti-harakatlar samarasi oʻlaroq rus oʻquv lugʻatchiligi yuqori pogʻonaga koʻtariladi va ulkan yutuqlarni qoʻlga kiritadi. Bunda P.N.Denisov, L.A.Novikov, S.G.Barxudarov, V.V.Morkovkin, Y.N.Karaulov, M.A.Skopina, V.N.Sergeyev, V.A.Redkin, A.V.Tekuchev, Z.A.Potixa, D.E.Rozental kabilarning xizmatlari katta boʻladi[17].

Yevropada o'quv lug'atchiligi o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga to'la erishib, bugungi kunda o'quv lug'atlarini zamonaviy takomillashgan ko'rinishlarini yaratish, ularni elektronlashtirish masalalari bilan shug'ullanmoqda. Bu borada K.Petrova, I.V.Azarova, O.A. Mitrofanova, A.A. Sinopalnikova, I.G. Gelfenbeyn, A.V. Goncharuk, V.P. Lexelt, A.A. Lipatov, V.V. Shilo, Y.N.Karaulov, Y.A. Sorokin, Y.F.Tarasov, N.V.Ufimseva, G.A.Cherkasova va boshqalarning xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim.

Boshqa tillarda bo'lgani kabi umumiy lug'atchilik masalalari o'zbek tilshunosligida ham Z.M.Ma'rufov, A.P.Hojiyev, S.F.Akobirov, H.Yusufxo'jayeva, N.Alhamova, E.Umarov, A.Madvaliyev, T.Aliqulovlarning ishlarida atroflicha o'rganilgan. Biroq bevosita o'quv lug'atchiligi masalalari hozirga qadar maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Lug'atchilik insoniyat hayoti, turmush-tarzi, ma'naviy madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, albatta, unda jamiyatdagi o'zgarishlar, yangiliklar, o'z davrining rang-barang qiyofasi aks etib boradi. Istiqloq sharofati o'laroq, barcha sohalarida bo'lgani kabi tilga milliy yondashish, tilni milliy qonuniyatlar asosida o'rganish va ta'lim tizimiga joriy etish kabi quvonarli ishlarni amalga oshirish kuchaydi va amalga oshirilmoqda. SHular sirasida o'zbek milliy lug'atchiligi ham erishgan yutuqlari qatorida o'z oldiga davr talabi asosida ma'lum bir muammolar va vazifalarni belgilab oldi[4].

Lug'atlar haqida fikr yuritilar ekan, avvalo, uning rang-barang qiyofasi lug'atlarning milliy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati sifatida namoyon bo'ladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, lug'atlar hamisha inson - jamiyat - madaniyat xalqasini birlashtirib turadi va madaniyatning bir bo'lagi sifatida borliqni aks ettiradi[18].

Lug'atchilik sohasiga, odatda, ma'naviy madaniyat kontseptsiyasining bir bo'lagi deb qaralsada, ular ijtimoiy vazifasi jihatidan uzviy aloqador, bir-birini to'ldirib turuvchi, axborot almashuvchi faktorlar sifatida bir-biriga teskari vektor yo'nalishida ta'sir etib turadi. Biz uni quyidagi farqlanishdan ko'rishimiz mumkin:

- 1) lug'atlarning milliy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati;
- 2) milliy madaniyatning lug'atchilik rivojiga ta'siri.

Ma'lumki, lug'at tuzish ishi sifatida turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarida u yoki bu tushunarsiz (eskirgan, dialek-tal, maxsus yoki chet tilga mansub) so'zning qanday ma'no anglatishini bilish ehtiyoji natijasida paydo bo'lgan. Lug'atlarning bugungi kundagi ahamiyati katta bo'lib, ma'lum bir soha vakillari foydalanadigan lug'atlardan tortib kundalik hayotda umumiy lug'at turlarigacha keng istifoda etilmoqda.

Lug'atlarning milliy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati haqida so'z borar ekan, avvalo, bu borada lug'atchilik, ta'lim tizimida qo'llanayotgan lug'atlar va ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni haqida to'xtalish lozim bo'ladi. Tilshunosligimiz borasidagi tadqiqotlar bugungi kunda

jahon tilshunosligining yutuqlari bilan hamohang tarzda olib borilmoqda. Ta'lim tizimidagi ona tili darsliklari haqida ham shunday ijobiy xulosaga kelsa xato bo'lmaydi. SHuningdek, maktab o'quv chilari uchun mo'ljallangan lug'atlarning milliy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati ham o'ta muhim. Hatto ta'lim tizimidagi bu lug'atlarning o'rni o'quv chilar ijodkorligini oshirishda maktab darsliklari bilan yonma-yon, teng ahamiyatga ega bo'ladi[19]. Agar o'quv lug'atlarining o'quv chi yoshlar ongiga ta'sir kuchini maktab darsliklariga teng holatda bo'ladi, deb hisoblasak, ommabop lug'atlar ta'sir kuchi esa inson ongiga sevib o'qiladigan badiiy asar bilan teng ahamiyatga ega bo'lishi haqida xulosa chiqarish mumkin. O'zbek tilshunosligi jahonda o'z yo'liga ega bo'layotgan bir pallada o'zbek milliy lug'atchiligi va bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar ushbu ishonchli yo'lning istiqbolli mundarijasi vazifasini bajaradi deyish mumkin[5].

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligi jahon tilshunosligi doirasida ilg'or odimlayotgan qatorda bo'lsa-da, milliy lug'atchilik masalasida esa bunday fikrga kelish to'g'riga o'xshamaydi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sohasining har bir bo'g'ini uchun (bog'chadan tortib oliy o'quv yurtigacha) yuzlab lug'atlarning maxsus turlari mavjudligi va yaratilayotgani sir emas. Jumladan, rus maktablari uchun 30 ga yaqin o'quv lug'atlari mavjud bo'lgani holda o'zbek maktablari uchun bitta „Imlo lug'ati“ bor xolos. Biroq tilshunosligimizda hozirgacha maktab darsliklari uchun baza sifatida asos bo'ladigan ko'plab lug'atlar yaratilgan. SHunga ko'ra ularni qayta ishlab ta'lim tizimiga yo'naltirish lozim bo'ladi. Bugungi kunda o'quv chilarining maktab darsliklari tematikasi doirasida chegaralanib qolayotgani, ijodkorlikka yo'naltiradigan zamonaviy lug'atlar bilan ishlamayotganligi ham ta'lim tizimidagi ma'lum bir bo'shliqni yuzaga kelishiga sabab bo'lyapti. Masalaning muhim tomoni shundaki, ayni paytda zamonaviy lug'atlar va elektron lug'atchilik masalasini hal qilish lozimga o'xshaydi[20].

Zamonaviy lug'atlar deganda tilshunosligimizda allaqachon ilmiy nazariy asoslari ishlab chiqilgan, ta'lim tizimiga joriy qilinishi zarur lug'atlar nazarda tutilmoqda. O'zbek tilida so'zlar darajalanishi lug'ati, o'zbek tilida butun-qism munosabatli (partonimik) so'zlar lug'ati, universal o'quv lug'ati, uyadosh so'zlar lug'ati, ideografik lug'at kabi o'quv lug'atlarining bir qancha yangicha turlari ta'lim bo'g'ini uchun tayyorlab berilishi zarur bo'lib turibdi.

Elektron lug'at masalasi hozirgi paytda nafaqat ta'lim tizimi, balki lug'atchilik sohasining muhim masalalaridan biri sanaladi. Til fani bo'limlari orasida leksikologiya va leksikografiya boshqalariga qaraganda tez o'zgarishga uchraydigan bo'limlar hisoblanadi. Zeroki bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarda yuz berayotgan jadal rivojlanish, o'zgarish asosida bir tildan boshqa tilga shiddat bilan oqib kelayotgan so'zlarning yangi leksik qatlamga kelish o'rnini aniqlash, izohlash va omma ahliga havola etish kabi tezkor ishlarni faqat va faqat oson va qulay elektron lug'atlar orqaligina tartibga solib turish mumkin. SHunga ko'ra nafaqat tilshunosligimizda, balki umumfanlar bo'yicha yaratiladigan elektron lug'atlar masalasi davlat

ahamiyatiga ega bo'lgan kun tartibidagi dolzarb masalalardan biridir. Biroq bu ishlarning barchasi tilshunoslik bo'yicha yaratiladigan elektron lug'atlari asosida shakllansa maqsadga muvofiq bo'ladi[6].

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Lug'atchilik tarixi ya'ni, dunyo lug'atchiligi tarixi qadim mingyilliklarga borib taqaladi. Jumladan, o'zbek lug'atchiligi tarixi ham bir necha ming yillar avval shakllana boshlagan.

O'zbek lug'atchiligi shakllanishining ilk bosqichlari XI asrda buyuk bobokalonimiz Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati-t-turk" asari bilan boshlanadi. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'ati-t-turk" asarini yaratib o'zbek lug'atchiligining shakllanishiga ilk tamal toshini qo'ygan desak mubolag'a bo'lmaydi[20].

"Devonu lug'ati-t-turk" asari turkiy tilshunoslikning bizga ma'lum bo'lgan ilk yirik, shuning bilan birga, tengi yo'q ulug' yodgorligidir. O'z zamonida asar arablarga, qolaversa, arab tili orqali Sharq-u G'arb xalqlariga qadimgi turklarning tili, madaniyati, urf-odatlar va tarixi to'g'risida to'liq ma'lumot beruvchi qomusiy kitob sifatida yaratilgan.

Asar arabchada "Divanu lug'ati-t-turki" deb atalgan. Ushbu atamada: divan- "devon" bu o'rinda so'zlarning muayyan izchillikdagi to'plami; lug'at- "so'zlar" degani; uning izohlovchisi bo'lmish turki - "turk" ma'nosida bo'lib, o'sha zamondagi turkiy tilni bildiradi. "Divanu lug'ati-t-turki"ning so'zma-so'z tarjimasida "Turk so'zlari devoni" bo'ladi[7].

"Devonu lug'ati-t-turk" asari ikki qismdan iborat bo'lib, u muqaddima va lug'at qismlaridan tuzilgan[21].

Muqaddimada asarning yaratilish sababi, o'sha davrda turklar ishlatgan yozuv, ot yasalishi, otlar va fe'llardagi orttirmalar, lug'atning tuzilish usullari, turkiy xalqlarning bayoni, joylashuv o'rni, turkiy tilning xususiyatlari, laxchalardagi farqlar to'g'risida so'z yuritilgan.

Asarda har bir so'zning ma'nolari (polisemiya, omonim, antonim, arxaik so'zlar) chuqur tahlil qilinadi, ayrim so'zlarning etimologiyasi beriladi.

Tovushlar tahlili ancha mukammal. Unli va undosh fonemalar, cho'ziq va qisqa unli farqlanadi, tildagi fonetik hodisa va qonuniyatlar ochib beriladi. Asarning muqaddima qismida shunday fikrni keltiradi.

Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so'zlar, sajlar, maqollar, qo'shiqlar rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Qattiq joylarini yumshatdim, qiyin va qorong'u joylarini yoritdim. Bu ish ustida so'zlarni o'z joyiga qo'yish, kerakli so'zlarni osonlik bilan topish uchun bir necha yil mashaqqat tortdim. Nihoyat, kerakli so'zlarni joyida ko'zlaydigan, qiyinchiliksiz topa oladigan bir holga keltirdim[8].

Asarning lug'at qismi sakkiz bo'limdan iborat bo'lib, bo'limlarning har biri kitob deb atalgan. Morfologiya qismida so'zlar arab tilshunosligi an'anasiga ko'ra uchga ajratiladi: fe'l, ism va bog'lovchi. So'zlarning yasalish va bog'lanish xususiyatlari haqida ham aytib o'tiladi.

<https://conferencea.org>

“Devonu lug‘ati-t-turk” ning lug‘at qismida 7500 so‘z sakkiz bo‘limda izohlanadi. Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy usuldan foydalanib, tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri bo‘lib qoldi[22].

A.Navoiy asarlariga tuzilib bizgacha yetib kelgan lug‘atlarning eng qadimiysi “Badoyi al-lug‘at” idir. Bu lug‘at muallifi Toile al- Imoniy al-Haraviy haqida deyarli ma'lumotlar yo‘q.Ushbu lug‘at qo‘lyozmasi bilan tanishgan kishi Toile Haraviyning o‘qimishli kishi bo‘lganiga ishonch hosil qiladi. Uning fors, turk va arab tillarini bilgani adab ilmlarini egallagan lug‘at kirishining qofiyali saj bilan yozilganidan ko‘rinib turibdi[10].

Haraviy lug‘atni Husayn Boyqaro topshirig‘i bilan 1500- yillarda tuzgan. Bu haqida muallif asarning muqaddima qismida ma'lumot berib o‘tadi.Hozircha lug‘atning ikki nusxasi ma'lum bo‘lib biri Eronda , Sipohsolar kutubxonasida , ikkinchisi Sankt-Peterburg xalq kutubxonasida saqlanmoqda.

Lug‘atning Sankt- Peterburg shahridagi qo‘lyozmasi 1750- yillarda ko‘chirilgan bo‘lib, 1960- yilda A.K. Borovkov tomonidan nashr qilingan. “Badoyi al-lug‘at” uch qismdan iborat bo‘lib, kirish, lug‘at teksti,va zayl ya'ni qo‘shimchalarni o‘z ichiga oladi.

Kirish epistoliar janr namunasi. U qofiyali proza- saj bilan yozilgan. Orada she'riy parchalar ham keltiriladi. Muqaddimadan ma'lum bo‘lishicha, Toile Haraviy Navoiy she'rlarini tushinish uchun zarur ba'zi qiyin eski o‘zbek so‘zlarini o‘z ichiga oluvchi qisqa lug‘at tuzish kerak bo‘lgan[23].

“Badoyi al-lug‘at” Navoiy asarlarida uchraydigan avvalo turkiy va mo‘g‘ulcha so‘zlarni, so‘ng esa juda kam miqdorda arabiy so‘zlarni ham o‘z ichiga olgan lug‘atdir.

Shuning bilan birga lug‘atni tashkil qiluvchi bu so‘zlarning ma‘nolari fors tilida izohlangani yoki tushintirilgani uchun “Badoyi al-lug‘at” ikki tilli lug‘atlar turiga ham kiradi.O‘sha davrga ya‘ni XV asrga kelib, bunday ikki tilli lug‘atlarni tuzishda katta tajriba yig‘ilgan edi. Arabcha-forscha, forscha-turkcha, shuningdek,turkcha-arabcha lug‘atlar ko‘plab tuzilgan bo‘lib, katta izohli lug‘atlar qatori tarjimali lug‘atlar tuzish bo‘yicha hamboy leksikografik traditsiyaning mavjudligi “Badoyi al-lug‘at” ni yaxshi leksikografik saviyada tuzish imkonini berdi. Lug‘atdan jami 854 so‘z o‘rin olgan bo‘lib, ular 24 bobga joylashtirilgan. Har bir so‘z o‘zining ma'nolari va shu ma'nolar tasdiqi uchun keltirilgan misollar ilyustratsiyalar bilan birga mustaqil lug‘at maqolani tashkil qiladi, hamda qo‘lyozmada uning bosh so‘zi sifatida lug‘at tekstidan ajratilib, qizil siyoh bilan bitilgan, ba'zan ustiga chiziq ham tortib qo‘yilgan[8].

“Badoyi al-lug‘at” tuzilishidagi eng muhim shartlardan biri-so‘zlarning ma‘nolarini tasdiqlovchi misollarning keltirilishidir. Toile Haraviy bu uslubni lug‘atning kirish qismidayoq ta’kidlab o‘tgan. Bu misollar “shohid”, deb ataladi va ular, asosan, Alisher Navoiy “Xamsa”sining “Hayrat ul- abror”, “Farhod va Shirin”, ”Layli va Majnun”, “Sabbai sayyor”, “Saddi Iskandariy”, va “Lison ut tayr” dostonlari, “Mahbub ul-qulub”, “Majolis un-nafois” asarlaridan olingan.Bundan tashqari Toile Haraviy misollarning “Chor devon”dan olinganini

<https://conferencea.org>

ham ta'kidlab o'tadi. Lug'atda Lutfiy, Husayn Boyqaro, she'rlaridan va Mir Haydarning "Maxzan ul-asror" asarlaridan ham misollar olingan. Shuningdek Suhayliy va Azraqiy she'rlaridan bittadan misollar keltirilgan[24].

Shunday qilib bu lug'at o'zidan keyin tuzilgan lug'atlar uchun ajoyib manba vazifasini o'tadi. Hozirgi kunda esa tilshunos, adabiyotshunos olimlar, yozuvchi va shoirlar uchun unutilgan yoki unitilayozgan, lekin Haydar Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi ulug' allomalar iste'molida bo'lgan so'zlarni o'z sahifalarida saqlab turgan bebaho xazinadir.

Navoiy asarlariga tuzilgan yana bir lug'at "Abushqa" lug'atidir.

Lug'at bundan 450 yil muqaddam ilgari tuzilgan bo'lib uni o'zbek tilida yaratilgan birinchi izohli lug'at deyish mumkin. Ushbu lug'atning fanda o'ndan ortiq nusxalari bo'lib, ularning eng qadimgi nusxalari chet el xazinalarida. Lug'atning 1552-yilda kitob qilingan Vena nusxasidan foto ko'chirma olingan edi. Endi Tehron nusxasidan ham ko'chirma olindi. Foto nusxasidan ko'rinib turibdiki, qo'lyozma to'liq va yaxshi saqlangan.

Lug'at yirik nasta'liq xatida yozilgan. Hajmi 201 varaq, ya'ni 402 betdan iborat. Har bir betda to'rttadan sakkiztagacha so'z misollar bilan izohlangan. Lug'atning bu nusxasi Tehrondagi Malak kutubxonasida "Farhangi devoni Alishe Navoiy" nomli qo'lyozma tarkibida saqlanmoqda. Hozirgacha bu lug'at muallifi noma'lum edi.

Vena va Tehron nusxalarini solishtirish natijasida uning muallifi Turk olimi Mustafo Binni Sodiq ekanligi ma'lum bo'ldi. Ammo uning tartib berilgan yili hali ham noma'lum. Hozircha lug'atning bizga ma'lum eng qadimgi Vena shahridagi nusxasi 1552- yilgi tarixga ega[9].

Lug'atda so'z ma'nosi, asosan 2 xil usulda ochib berilgan. Birinchi usulda lug'atshunos so'z ma'nosini bir so'z bilan lo'nda ifodalaydi.

Chunonchi, ko'kumtul so'zi ko'm-ko'k deb izohlangan. Ikkinchi usulda so'z ma'nosi tushuntirish yo'li bilan ochib berilgan. qirov-qirag'u demakdurki, savuq ayyomda gecha ila havodan era dushar eri ag'arduri "Navodir - ush-shabob" da kelur, bayt.

Xullai kofurg'un ul xil'ati xuzro uza,

Sabzai xuzroya go'yo tushti rahmatdir qirov.

Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan lug'atlardan "Abushqa" o'zining leksik materialni qamrab olishi jihatidan "Badoyi al-lug'at" ga nisbatan boyligi va keng o'quv chilar ommasi foydalanishi uchun qulayligi tufayli uning qo'lyozma nusxalari keng tarqalgan. Bu esa lug'atni ilmiy muomalaga kiritish ishini birinchi navbatda amalga oshirishning omili bo'ldi. Natijada "Abushqa" navoiyshunoslar, turkologlar va o'zbek klassik adabiyoti mutaxassislari uchun tez-tez murojaat qilib turiladigan kitobga aylanishiga olib keldi.

Shunday qilib "Abushqa" lug'ati ham boshqa lug'atlar kabi Navoiy asarlariga yaratilgan mukammal asarlardan biridir.

"Abushqa" lug'ati Navoiy davridan boshlab hozirgi kunga qadar Navoiy asarlarini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi.

“Abushqadan so‘ng ikki asr davomida Alisher Navoiy asarlariga bag‘ishlangan katta lug‘at tuzilgani ko‘zga tashlanmaydi. Bu davr ichida Navoiy asarlari qo‘lyozmalari hoshiyalariga bitilgan kichik lug‘atlarga shu qo‘lyozmalar bilan birga bizgacha yetib kelgan.

Eski o‘zbekcha - forscha lug‘atnavislik an‘analarining XVIII asrdagi ravnaqi Mirza Muhammad Mahdiyxon nomi bilan bog‘liq, lekin uning hayot yo‘li haqida ma‘lumot juda kam. Mirza Mahdiyxon Navoiy asarlariga bag‘ishlab o‘zining “Sangloh” lug‘atini tuzgan.

Bu lug‘at Navoiy asarlari bo‘yicha tuzilgan eng katta lug‘at hisoblanadi. “Sangloh”ning o‘zidan oldingi lug‘atlarga nisbatan beqiyos katta hajmi ko‘zga tashlanadi. 6181 lug‘at maqolani o‘z ichiga olgan bu lug‘at “Badoyi al-lug‘at” va “Abushqa” dagi hamma so‘z va so‘z formalarini birga qo‘shib sanaganda ham ulardan ko‘ra bir necha marta ko‘p o‘rin egallashi aytilgan. Mirza Mahdiyxon turkiy xalqlarning afshar urug‘idan bo‘lib, u Eron shohi Nodirshohning kotibi bo‘lgan.

Lug‘at tuzishdan maqsadi Navoiy asarlarida uchraydigan qiyin so‘zlar ma‘nosini forsiyzabon xalqlarga ochib berish edi. Shuning uchun u lug‘atni “Sangloh”, ya‘ni toshli yer, toshloq deb atadi. Lug‘at 1759-1760-yillarda yozib tugallangan. Mahdiyxon kitobni umumiy nom – “Sangloh” bilan atagan. Bu haqda muallifning o‘zi lug‘atning kirish qismida o‘zbek tili va Navoiy leksikasi va iboralarining salobati va so‘zlarining qiyin (qattiq)ligi sababli kitobga “Sangloh” deb nom qo‘yganini aytadi[11].

Bu haqda “Badoyi al-lug‘at” asari oxiriga ilova qilingan 180 so‘z boshlanishidagi biz yuqorida tarjimasini bilan bergan jumladagi “Sangloh” ma‘nosi to‘g‘ri ekanini yana bir bor qayd qilish mumkin.

Hozircha lug‘atning uch nusxasi aniqlangan bo‘lib, ular Angliya qo‘lyozma xazinalari fondida saqlanadi.

“Sangloh” lug‘ati 1960-yilda mashhur ingliz olimi Djerard Kloson tomonidan turli sharh va izohlar bilan Londonda nashr ettiriladi.

Lug‘atshunos so‘z ma‘nolarini ochish uchun asosan Alisher Navoiyning poetik asarlariga murojaat qiladi. Ayrim hollarda qo‘shimcha ravishda Bobur, Husayn Boyqaro, Lutfiy kabi shoirlar ijodidan ham misollar keltiriladi. Ushbu lug‘atning boshqa mumtoz lug‘atlardan farqi shuki, “Sangloh” da birinchi marta nasriy asarlardan ham misollar keltirilgan.

Lug‘atda Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan juda ko‘p nodir so‘zlar ma‘nosi ochib berilgan. Bunday so‘zlar boshqa lug‘atlarda uchramaydi. Shulardan biri qadam tashlash, yurish ma‘nosidagi “Mangish” so‘zidir.

Bu so‘z ma‘nosi Mahdiyxon tarafidan quyidagicha izohlanadi: mangish- kun ustida sukun, forsiy “k” (ya‘ni “g”) kasrali, ma‘nosi xirom va raftor qadam tashlamoq, chunonchi, “Layli va Majnun” da uchraydi.

Bir- bir mangishda yuz latofat,

Yo‘q- yo‘qki sochib jahonga ofat[12].

<https://conferencea.org>

Mahdiyxon lugʻatning fonetik tuzilishini bayon qilish chogʻida XVIII asr Astrobod oʻzbeklarining tili haqida noyob maʼlumotlar yozib qoldirgan. Bu maʼlumotlarga koʻra oʻsha davr tilida 9 ta unli (ulardan 6 tasi fonologik ahamiyatga ega), 28 ta undosh tovush boʻlganligi haqida maʼlumot beradi.

Muallif soʻz maʼnolarini izohlar ekan, ularning koʻchma maʼnolarini alohida qayd qilib oʻtadi. Chunonchi, etak soʻzini izohlar ekan, uning asosiy maʼnosiforscha doman ekanligini koʻrsatadi, shu bilan uning majozan togʻ etagi maʼnosini anglatishini quyidagicha yozadi: tak- (forscha) maʼnosi doman, arabcha zayl, majozan togʻning etagi.

Biz yuqorida keltirgan lugʻatlar eski oʻzbek lugʻatlarining eng asosiylari hisoblanadi. Bulardan tashqari oʻnlab lugʻatlar bor. Ular jumlasiga “Kitobi lugʻati atrokiya”, “Farhangi Hazrati Alisher mullaqab ba al-Navoiy” kabi lugʻatlar ham kiradi[13].

Oʻzbek lugʻatchiligi tarixida XXasr alohida oʻrin tutadi. Bu davrda turli maqsadlarni koʻzda tutgan koʻplab terminalogik lugʻatlar, oʻquv va imlo lugʻatlari, ikki va uch tilli soʻzlashgichlar yaratildi. Bunda ayniqsa, ruscha- oʻzbekcha va oʻzbekcha- ruscha, shuningdek oʻzbek tilini boshqa yevropa va xorijiy sharq tillari bilan qiyoslab oʻrganishga moʻljallangan lugʻatlar alohida oʻrin tutadi.

Ularning eng muhimlari sifatida E.D.Polivanovning “Qisqacha ruscha-oʻzbekcha lugʻat” I (Toshkent, Moskva,1926), Ashurali Zohiriyning 2 jildli “Ruscha-oʻzbekcha mukammal lugʻati” (34 ming soʻz; Toshkent 1927-28), K.K.Yudaxinning “Qisqacha oʻzbekcha-ruscha lugʻati” (arab grafikasida, Toshkent 1927), U.Axmadjonov va B.Ilyozovning “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat”i (lotin grafikasida, Toshkent 1931), S.Rahmatiy va Abdulla Qodiriylarning “Ruscha-oʻzbekcha toʻla soʻzlik” (2-jild, 34 ming soʻz; Toshkent- qozon, 1934, lugʻatning 1-jildi nashr etilmay qolgan), V.V.Reshetovning” Qisqacha oʻzbekcha-ruscha lugʻati” (Toshkent, 1935) kabilarni koʻrsatish mumkin. 40-yillarning boshlarida 17-ming soʻzli “Oʻzbekcha – ruscha lugʻat” (Toshkent 1941) va 30 ming soʻzli “Ruscha - oʻzbekcha lugʻat” (Toshkent 1942) yaratildi va nashr etildi. Professor T.N.Qori-Niyoziy va professor A.K.Borokovlar tahriri ostida tayyorlangan ushbu lugʻatlar soʻzligining tarkibi jihatidan ham, lugʻat maqolalarining toʻlaligi jihatidan ham avval nashr etilgan lugʻatlardan ancha mukammal edi.

Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti leksikograflarining respublikadagi tajribali tarjimonlar bilan hamkorlikda yaratgan 5 jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat”ning bosilib chiqishi (78 ming soʻz Toshkent 1950-55), 50 ming soʻzli 1 jildli “Ruscha - oʻzbekcha lugʻat” (M. 1954) va 40 ming soʻzli 1 jildli “Oʻzbekcha - ruscha lugʻat” (M. 1959) kabi lugʻatlarning nashr qilinishi oʻzbek leksikografiyasining tarixida muhim voqea boʻldi. Mazkur lugʻatlar, ayniqsa, 1959 - yilda nashr etilgan “Oʻzbekcha - ruscha lugʻat” oʻzbek tilining dastlabki, birinchi izohli lugʻati tuzish uchun asos boʻldi va uning ilmiy bazasini yuzaga keltirdi. Ushbu lugʻatlarda oʻzbek leksikografiyasining tajribalari umulashtirilgan, hozirgi zamon oʻzbek

tilining leksik- semantik tizimi va XX asrda shakllangan meyorlari birinchi marta keng tavsif etilgan edi[14].

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'zbek lug'atchiligi tarixi uzoq tarix va boy an'anaga ega.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Tilning rivojlanish jarayonida uning lug'at tarkibi (leksikasi) boshqa sohalari qaranganda tez, sezilarli, jiddiy o'zgarishlarga uchraydi. Buning sabablari ma'lum, albatta. Bu o'zgarishlar leksikaning faqat miqdor jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham rivojlanishini aks ettiradi. Leksikadagi taraqqiyot, o'zgarishlar yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi va ma'lum lug'aviy birliklarning yo'q bo'lishi (iste'moldan chiqishi), so'zlarning yangi ma'nolar kasb etishi va ayrim ma'nolarining yo'qolishi kabi hodisalardan iborat bo'ladi. Bu jarayonda lug'aviy birliklarning adabiy me'yor (norma)ga bo'lgan munosabatida, qo'llanishi va boshqa xususiyatlarida turlicha o'zgarishlar yuz beradi. Ana shunday o'zgarishlar ma'lum darajaga kelganida, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi tadqiqotlarga ehtiyoj tug'iladi. Amaliy ishlarning asosiylaridan biri esa izohli, tarixiy va etimologik lug'atlar tuzish hisoblanadi. Ikki jildli "Uzbek tilining izohli lug'ati" yuzaga kelgandan buyon o'tgan yigirma yildan ko'proq vaqt mobaynida uzbek tili leksikasida yuz bergan o'zgarishlar e'tiborga olinsa, allaqachon ana shunday lug'atning yangisini yaratish vaqti kelganligi va bu ish hozirgi kunning talabi ekanligi o'z-o'zidan ayon bo'ladi[15].

O'quv lug'atchiligining shakllanishi, rivojlanish tarixini o'rganish, jahon o'quv lug'atchiligi an'alariga tayangan holda ta'limiy lug'atlarni yaratish tamoyillarini ishlab chiqish. Bu maqsadni amalga oshirish uchun jahon tilshunosligida o'quv lug'atchiligi tarmog'ining shakllanish tarixini yoritish, o'zbek o'quv lug'atlarining lingvistik xususiyatlarini yoritish, o'zbek o'quv lug'atchiligining ilmiy asoslarini yaratish vazifalari bajariladi.

- Ingliz va o'zbek tillarida o'quv lug'atlarining shakllanish va taraqqiyotini o'rganish;
- O'quv lug'atlarining asosiy tasnifiy belgilari va tarkibiy tuzilishini o'rganish;
- Ingliz va o'zbek tilshunosligida yaratilgan o'quv lug'atlarini chog'ishtirma tadqiq qilish;
- Zamonaviy, elektron o'quv lug'atlarining ta'lim jarayonidagi ahamiyatini oshirishga hissa qo'shish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kushokov, S. Y. (2021). THE ROLE OF ZOROASTRIANISM IN THE ANCIENT STATE OF BACTRIA. World Bulletin of Social Sciences, 4(11), 69-72.
2. Mamanovich, R. K. (2021). Components of political culture in political processes. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 953-959.

3. Ramazanovich, M. N., & Abdunazarovich, P. B. (2021). Protection of Family and Youth in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Middle European Scientific Bulletin, 18, 221-223.
4. Ramazanovich, M. N., & Abdunazarovich, P. B. (2021). Protection of Family and Youth in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Middle European Scientific Bulletin, 18, 221-223.
5. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. Middle European Scientific Bulletin, 18, 218-220.
6. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. Middle European Scientific Bulletin, 18, 218-220.
7. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ, 75(part 6), 28.
8. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ, 75(part 6), 28.
9. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ, 75(part 6), 28.
10. Yusupovich, K. S. (2020). The Emergence Of Religious Views Is Exemplified By The Southern Regions. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(10), 143-145.
11. Yusupovich, K. S. (2021). Қадимий Дафн Маросимларидаги Анъана Жараёнлари Ўзбекистон Жануби Мисолида. Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 1(6), 72-77.
12. Yusupovich, K. S. (2021). Қадимий Дафн Маросимларидаги Анъана Жараёнлари Ўзбекистон Жануби Мисолида. Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 1(6), 72-77.
13. Абдумуратова, С. (2018). ВЛИЯНИЕ НА СОВРЕМЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ АЛИШЕРА НАВОЙИ. Гуманитарный трактат, (25), 96-98.
14. Абдумуратова, С.С. (2022). ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ И СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ. Академические исследования в области педагогических наук , 3 (1), 745-747.
15. Кушоков, С. (2021). Сополли ва Жарқўтон маданиятида дафн маросимлари. Общество и инновации, 5(11/S), 150-154.
16. Расулов, Х. (2021). Ҳуқуқий маданият: муаммонинг ижтимоий-сиёсий омиллари. Общество и инновации, 2(10/S), 335-342.

<https://conferencea.org>

- 17.Расулов, Х. (2021). Ҳуқуқий маданият: муаммонинг ижтимоий-сиёсий омиллари. Общество и инновации, 2(10/S), 335-342.
- 18.Расулов, Х. М. (2020). JAMOATCHILIK NAZORATI VA RAHBAR KADRLAR FAOLIYATI SIYOSIY-HUQUQIY MADANIYAT IFODASI SIFATIDA. Журнал Социальных Исследований, 3(4).
- 19.Расулов, Х. М. (2020). ТЕХНОЛОГИИ ОБЪЯСНИТЕЛЬНО-РЕПРОДУКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (3), 45-49.
- 20.Расулов, Х. М. (2021). ВЫБОРНЫЙ ЯВЛЕНИЕ И ПРОБЛЕМА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭЛЕКТРОКУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ. Восточно-европейский научный журнал, (11-6 (75)), 28-32.
- 21.Расулов, Х. М. (2021). ВЫБОРНЫЙ ЯВЛЕНИЕ И ПРОБЛЕМА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭЛЕКТРОКУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ. Восточно-европейский научный журнал, (11-6 (75)), 28-32.
- 22.Расулов, Х. М. (2022). СИЁСИЙ МУНОСАБАТЛАРДА СИЁСИЙ МАДАНИЯТ. Academic research in educational sciences, 3(NUU Conference 2), 863-867.
- 23.Саидовна, А.С. (2022). Язык является главным приоритетом в обучении. ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ, 2 (2), 108-110
- 24.Хакимова, М. (2021). Ўзбекистонда миллатлараро тотувликни таъминлаш соҳасидаги устувор йўналишлар. Общество и инновации, 2(10/S), 261-267.